



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No7
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 68 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METHODS USED IN BUSINESS DECISION-MAKING	10
Ochildiev Bekhruz To'liqin o'g'li, Safarov Alisher	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING AMALIY TAHLILI O'ZBEKISTON MIQYOSIDA VA UNING XUFYONA JIHATI	15
Yuldasheva Nargiza Rashidovna, Koshanov Abdimurat Azat uli	
BIZNESDA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA KASBIY KOMMUNIKATSIYALAR	20
Gulmurodova Marjona Olimjon qizi, Normamatova Sitora Nozim qizi, Umida Yuldasheva Anasaliyevna	
ИНТЕГРАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЙ МОДЕЛИРОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИЕ ПО БУХГАЛТЕРСКОМУ УЧЁТУ: ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	25
Муратова Наргиза Тахировна	
MIGRATSIYA JARAYONLARI VA IQTISODIY TENGSIZLIK O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR XUSUSIYATLARI	30
E.T. Samadova, M.Sh.Raximova	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA MENEJMENTNING YANGI YONDASHUVLARI	36
Shoydulova Maftuna Zafar qizi, Meliyeva Nargiza Eshboyevna	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR	43
Nosirov Sabohiddin, Abdullayeva Mohiniso, Hafizullayev Javlon, Kasimova Zilola G'ulomiddinovna	
MEHNAT MIGRATSIYASI VA PUL O'TKAZMALARINING IQTISODIYOTGA TA'SIRI	48
Chintemirova Diyora Shuxrat qizi, Akbarova Barno Shuxratovna	
TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLAR VA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARINING O'RNI	53
Mirkomilov Nozimjon Oybek o'g'li, Tillayev Xurshid Sulaymon o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL MOLIYALASHTIRISHNI JORIY QILISH ORQALI IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	59
Inatullayeva Intizor Jamshid qizi, Uchqun Yunusovich O'roqov	
CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	64
G'ayratova Zilola G'anijon qizi, Ibragimov G'anijon G'ayratovich	



CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

G'ayratova Zilola G'anijon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Menejment fakulteti, 4-kurs, KB-61/22 guruh talabasi
Email: gayratovazilola597@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Ibragimov G'anijon G'ayratovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish markazi boshlig'i
Innovatsion Menejment kafedrasida dotsenti Phd.
Email: g.ibragimov@tsue.uz

Annotatsiya: Mazkur tezisda chiqindilarni qayta ishlashning iqtisodiy va ekologik ahamiyati tahlil qilingan. Unda qayta ishlash jarayonlari ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishi, yangi ish o'rinlarini yaratishi hamda ikkilamchi xomashyo bazasini shakllantirishi ta'kidlangan. Shuningdek, yuqori va past daromadli mamlakatlarda chiqindilarni boshqarishdagi farqlar, qayta ishlash infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning uzoq muddatli samaralari hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi roli yoritilgan.

Kalit so'zlar: chiqindilarni qayta ishlash, iqtisodiy samaradorlik, ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot.

Abstract: This thesis analyzes the economic and environmental significance of waste recycling. It emphasizes that recycling processes reduce production costs, create new jobs, and establish a secondary raw material base. The study also highlights the differences in waste management between high- and low-income countries, the long-term benefits of investments in recycling infrastructure, and the role of recycling in achieving sustainable development goals.

Key words: waste recycling, economic efficiency, environmental safety, sustainable development, green economy.

Аннотация: В данной тезисе рассмотрены экономическое и экологическое значение переработки отходов. Отмечено, что процессы переработки снижают производственные затраты, создают новые рабочие места и формируют базу вторичного сырья. Также освещены различия в управлении отходами в странах с высоким и низким уровнем дохода, долгосрочные эффекты инвестиций в инфраструктуру переработки и их роль в достижении целей устойчивого развития.

Ключевые слова: переработка отходов, экономическая эффективность, экологическая безопасность, устойчивое развитие, зелёная экономика.

Global miqyosda chiqindilarni samarali boshqarish masalasi iqtisodiy barqarorlik, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon banki hamda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG 12 – Mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish) doirasida chiqindilarni kamaytirish va ularni qayta ishlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu jarayon nafaqat ekologik muammolarni hal etishga xizmat qiladi, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirish, yangi ishlab chiqarish imkoniyatlarini yaratish va bandlik darajasini ko'tarishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xususan, chiqindilarni qayta ishlash orqali qayta tiklanuvchi xomashyo bazasi shakllanadi, ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi va materiallar savdosidan qo'shimcha daromad olinadi. Shu bilan birga, chiqindi poligonlaridan foydalanish hajmining qisqarishi davlat budjeti hamda mahalliy boshqaruv xarajatlarini sezilarli darajada yengillashtiradi. Ushbu jarayonning yana bir muhim jihati shundaki, u innovatsion texnologiyalarni joriy etish, "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini rivojlantirish hamda doiraviy iqtisodiyot (Circular Economy) tamoyillarini amaliyotga keng tatbiq etishga zamin yaratadi.


Biroq, chiqindilarni qayta ishlashning uzoq muddatli samaradorligini ta'minlash uchun zarur infratuzilmani shakllantirish, samarali boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish va dastlabki bosqichda yirik investitsiyalarni jalb etish



talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro tajriba, innovatsion moliyaviy mexanizmlar va milliy strategiyalar uyg'unligini ta'minlash mazkur yo'nalishda alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Qayta ishlash nafaqat ekologik zarurat, balki sirkulyar iqtisodiyotda iqtisodiy o'sishning muhim omilidir. U yangi ish o'rinlarini yaratadi, xarajatlarni tejaydi, resurslarni asraydi, daromad keltiradi, innovatsiyalarni rag'batlantiradi va atrof-muhitga yetkaziladigan zararni kamaytiradi¹.

Qayta ishlash xomashyo qazib olish va ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi. Materiallardan qayta foydalanish orqali sanoat korxonalari qazib olish va dastlabki qayta ishlash xarajatlari yuqori bo'lgan tabiiy resurslarga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi. Masalan, alyuminiyni qayta ishlash uni boksit rudalaridan yangidan ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan energiyaning qariyb 95 foizigacha tejash imkonini beradi. Bu jarayon nafaqat ishlab chiqaruvchilar uchun operatsion xarajatlarni kamaytiradi, balki resurslarni qazib olish bilan bog'liq ekologik ta'sirlarni ham sezilarli darajada minimallashtiradi² (1-rasm).



1-rasm. Global chiqindilar tarkibi (foiz)³

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, chiqindilarning eng katta qismini oziq-ovqat va yashil chiqindilar (44%) tashkil etadi. Bu holat chiqindilarni qayta ishlashda kompostlash yoki organik o'g'it ishlab chiqarish imkoniyatlari keng ekanini anglatadi. Oziq-ovqat chiqindilarining yuqori ulushi atrof-muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki ular to'g'ri boshqarilmasa, metan gazi ajralishiga olib keladi.

Ikkinchi o'rinda qog'oz va karton (17%) turadi. Ushbu materiallarni qayta ishlash katta iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi, chunki u daraxt resurslarini tejaydi va chiqindilar hajmini kamaytiradi. Qog'oz chiqindilarini alohida yig'ish va qayta ishlash barqaror ishlab chiqarish zanjirining muhim bo'g'ini hisoblanadi.

"Boshqa" turkumiga kiruvchi chiqindilar (14%) ham sezilarli ulushga ega. Ularning tarkibi aniq tasniflanmagan bo'lsa-da, bu toifa resurslarni ajratish va qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirish uchun qo'shimcha chora-tadbirlarni talab etadi.

Plastmassa (12%) chiqindilarning muhim qismini tashkil etib, ekologik muammolarning asosiy manbalaridan biri sanaladi. Plastmassaning uzoq yillar davomida parchalanmasligi uni qayta ishlashni dolzarb vazifaga aylantiradi.

Shisha (5%) va metall (4%) chiqindilar ulushi nisbatan kichik bo'lsa-da, ularni qayta ishlash yuqori iqtisodiy foyda keltiradi. Bu materiallar deyarli cheksiz qayta ishlanish xususiyatiga ega bo'lgani uchun iqtisodiy jihatdan qimmatli resurs hisoblanadi.

Eng kam ulushni rezina va charm (2%) hamda yog'och (2%) chiqindilari egallagan. Biroq, bu chiqindilarni ham maxsus texnologiyalar orqali qayta ishlash iqtisodiy samarali natijalar berishi mumkin.

1 <https://www.mpcsa.co.za/blogs/mpact-blog/the-economic-benefits-of-recycling-in-the-circular-economy#:~:text=Recycling%20is%20not%20just%20an,innovation%2C%20and%20reduces%20environmental%20damage>

2 <https://cleancyclers.com/from-waste-to-wealth-the-economics-of-recycling/#:~:text=Recycling%20helps%20to%20mitigate%20the,new%20business%20ventures%20and%20technologies>


3 https://datatopics.worldbank.org/what-a-waste/trends_in_solid_waste_management.html



Chiqindilar tarkibi bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, organik chiqindilar eng katta ulushga ega bo'lib, ularni qayta ishlash ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qog'oz, plastmassa, shisha va metall chiqindilari esa iqtisodiy jihatdan qayta ishlash uchun eng istiqbolli yo'nalishlardir. Shu sababli chiqindilarni to'g'ri saralash, qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish va aholining ekologik madaniyatini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Jahon miqyosida chiqindilarni boshqarish tizimi sezilarli tafovutlarga ega. Hozirda chiqindilarning asosiy qismi hanuzgacha poligonlarga tashlash yoki ochiq ko'mish yo'li bilan utilizatsiya qilinmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, chiqindilarning 37 foizi poligonlarga yuboriladi, biroq ularning atigi 8 foizi gaz yig'ish tizimiga ega sanitariya poligonlarida ko'miladi. Qolgan 31 foiz chiqindilar ochiq tashlash orqali yo'q qilinmoqda. Shu bilan birga, 19 foiz chiqindilar qayta ishlash va kompostlash orqali iqtisodiy aylanishga qaytarilsa, 11 foizi yakuniy utilizatsiya sifatida yoqib yuboriladi.

Ushbu ma'lumotlar chiqindilarni boshqarish tizimini modernizatsiya qilish, qayta ishlashni kengaytirish va "nol chiqindi" (zero waste) tamoyiliga asoslangan ekologik siyosatni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi (2-rasm).



2-rasm. Mintaqalar bo'yicha oziq-ovqat chiqindilarining hajmi⁴

Bunday ko'rsatkichlar chiqindilarni boshqarish darajasining mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Masalan, yuqori va o'rta daromadli mamlakatlarda chiqindilarni to'g'ri utilizatsiya qilish, nazorat ostidagi poligonlar hamda maxsus obyektlarda qayta ishlash keng tarqalgan. Aksincha, past daromadli mamlakatlarda chiqindilarning 93 foizi ochiq tashlanmoqda, bu esa ekologik xavfsizlikka jiddiy tahdid tug'dirib, sog'liqni saqlash xarajatlarini oshirmoqda. Taqqoslash uchun, yuqori daromadli mamlakatlarda bu ko'rsatkich atigi 2 foizni tashkil etadi.

Hududiy kesimda ham farqlar seziladi. Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika, Sahroi Kabir osti Afrikasi hamda Janubiy Osiyo mintaqalarida chiqindilarning yarmidan ko'pi ochiq tashlanadi. O'rta daromadli mamlakatlarda chiqindilarning asosiy qismi (54 foizi) poligonlarga yuborilsa, yuqori daromadli mamlakatlarda chiqindilarni boshqarishning samarali modeli shakllangan: 39 foizi poligonlarga, 36 foizi qayta ishlash va kompostlashga, 22 foizi esa yoqib yuborishga yo'naltiriladi.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan, chiqindilarni qayta ishlash jarayoni Green GDP (yashil yalpi ichki mahsulot) konsepsiyasi doirasida qo'shimcha qiymat yaratadi. Bu, bir tomondan, chiqindilarni ikkilamchi xomashyo sifatida iqtisodiyotga qaytarish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirsas, ikkinchi tomondan, yangi ish o'rinlari va qo'shimcha daromad manbalarini shakllantiradi. Qayta ishlash ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy samaradorlik ortadi, atrof-muhit ifloslanishi bilan bog'liq yashirin xarajatlar (externalities) esa qisqaradi.

4 https://datatopics.worldbank.org/what-a-waste/trends_in_solid_waste_management.html



BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari — SDG 12 (Mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish) hamda SDG 13 (Iqlim bo'yicha choralar) — doirasida chiqindilarni boshqarish nafaqat ekologik barqarorlikni, balki iqtisodiy o'sishni ham qo'llab-quvvatlovchi omil sifatida e'tirof etilgan. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, qayta ishlash infratuzilmasiga kiritilgan har bir 1 dollar investitsiya uzoq muddatda 3–5 dollar miqdorida iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy foyda keltiradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, chiqindilarni qayta ishlash nafaqat ekologik zarurat, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlovchi muhim jarayondir. Global tajriba asosida aytish mumkinki, chiqindilarni boshqarish darajasi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichi bilan bevosita bog'liq. Yuqori daromadli mamlakatlarda chiqindilarni qayta ishlash, kompostlash va yoqib utilizatsiya qilish kabi samarali usullar qo'llanilayotgan bo'lsa, past daromadli davlatlarda ochiq tashlash ulushi yuqoriligi ekologik xavfsizlik hamda sog'liqni saqlash tizimiga jiddiy tahdid tug'diradi.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan, qayta ishlash Green GDP konsepsiyasi doirasida qo'shimcha qiymat yaratadi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, ikkilamchi xomashyo bazasini kengaytiradi va bandlik darajasini oshiradi. Shu bilan birga, chiqindilarni boshqarish infratuzilmasiga kiritilgan investitsiyalar uzoq muddatda sezilarli iqtisodiy hamda ijtimoiy foyda keltirishi isbotlangan.

Shunday qilib, chiqindilarni qayta ishlash jarayonini samarali yo'lga qo'yish, infratuzilmani rivojlantirish va aholining ekologik madaniyatini oshirish orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, iqtisodiy o'sish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. World Bank. What a waste 2.0: Global snapshot of solid waste management. – Washington, DC: World Bank, 2022. – 210 p.
2. OECD. Global material resources outlook to 2060: Economic drivers and environmental consequences. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 180 p.
3. UNEP. Global waste management outlook 2023. – Nairobi: United Nations Environment Programme, 2023. – 256 p.
4. UNDP. Sustainable development goals report 2023. – New York: United Nations, 2023. – 190 p.
5. European Environment Agency. Circular economy and waste prevention in Europe. – Copenhagen: EEA Report, 2022. – 145 p.
6. FAO. The state of food and agriculture 2024: Food waste and food systems transformation. – Rome: FAO, 2024. – 200 p.
7. Smith J., Brown L. Recycling efficiency and circular economy transitions // Journal of Environmental Economics. – 2022. – Vol. 45, No. 2. – P. 112–128.
8. Karimova D. O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va chiqindilarni qayta ishlash istiqbollari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali. – 2023. – №3. – B. 55–64.
9. Rasulov A. Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirishda raqamli texnologiyalarning roli // TDIU ilmiy axborotlari. – 2024. – №2. – B. 40–48.
10. Usman M. Innovations in solid waste recycling: Global practices and future directions. – London: Routledge, 2025. – 230 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

7-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>